



## BEKOBOD TUMANI GEOGRAFIYASI

**Muratova Farangiz Shavkat qizi**

*Talaba Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti Geografiya  
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** *Maqola Bekobod tumanining geografiyasi haqida bo`lib, tumanning tabiatni, tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi, ichki suvlarini, tupoqlari, o`simgilik va hayvonot dunyosi, aholisi, aholi punktlari, xo`jaligi va iqtisodiyoti haqida bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, tumandagi sanoat korxonalarini soni, ijtimoiy soha muassasalarini haqida ham ma`lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Bekobod tumani, Bekobod shamoli, ihota daraxtlari, gidrouzel.*

## GEOGRAPHY OF BEKABAD DISTRICT

**Muratova Farangiz Shavkat qizi**

*1 th degree master of National university of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek*

**Abstract.** *The article is about the geography of Bekabad district, it is about the nature, natural conditions, geological structure, internal waters, soil, plant and animal world, population, population buildings and economy of the district. Along with this, information is also provided about the number of industrial factories in the district, institutions of social sphere.*

**Keywords:** *Bekabad district, Bekabad wind, ihota trees, gidrouzel*

Bekobod tumani Toshkent viloyatining eng janubida joylashgan tumanlardan biri bo`lib, ilk bor 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etildi. 1962-yil 24-dekabrdan u Sirdaryo viloyatining Yangiyer tumani bilan birlashtirildi. 1963 – yil 17- aprelda esa Yangiyer tumani tarkibidan chiqarilib alohida tuman bo`ldi. Tuman shimolda Toshkent viloyatining Bo`ka tumani (chegara uzunligi 40,87 km), g`arbda Sirdaryo viloyati (chegara uzunligi 70,06 km), sharq va janubda Tojikiston Respublikasi (chegara uzunligi 81,51 km) bilan chegaradosh. Umumiyligi maydoni 750,5 kv.km, bo`lib, chegara uzunligi 209,03 km. Aholisining soni (2023 – yil 1- yanvar holatiga ko`ra) 163,1 ming kishidan iborat bo`lib, viloyat doimiy aholisi (2993,4 ming kishi) ning 1,8 foizini tashkil etadi. Shundan, 27,2 ming kishi shahar joylarida va 136 ming kishi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 kv kmga 217,5 kishi to`g`ri keladi. Bekobod tumani Toshkent viloyatida aholi soni jihatidan 8-o`rinda turadi. Respublika aholisiga nisbatan salmog`i 0,47 % ni tashkil etadi. Aholisining milliy tarkibi: o`zbeklar (85,8%), qozoqlar (4,4%), ruslar (0,7%), tatarlar (0,2%), tojiklar (4,6%), koreyslar (1,7%) va boshqalar.

Bekobod tumanida 1 ta shaharcha (Zafar shaharchasi), 51 ta mahalla fuqarolar yig`ini, 81 ta boshqa aholi punktlari mavjud bo`lib, ularda 44,6 mingga yaqin oila istiqomat qiladi. Tuman markazi Zafar shaharchasi hisoblanadi. Zafar shaharchasi qadimiy aholi maskanlaridan biri bo`lib, uning markazidagi “Nomsiz tepa” qabristonidan 8 – 9 – asrlarga oid arxeologik buyum qoldiqlari topilgan. Shu bilan bir qatorda yirik aholi punktlariga Zafar, Gulzor, Xos shahar va shaharchalari hamda Jumabozor, Sretenko qishloq aholi punktlari kiradi. Viloyat markazigacha bo`lgan masofa 112 km.

Tuman hududi g`arbga tomon pasayib boradi. Iqlimi kontinental, qishi nam, bahori nisbatan yumshoq, yozi esa issiq va quruq. Yanvarning o`rtacha harorati -2,5° C, iyulniki 28,5° C ga teng. Yiliga 227 mm yog`in yog`adi. Vegetatsiya davri 220 kun.

Bekobod tumani Qurama tog`i etagida joylashganligi va hududidan 46 km uzunlikda janubi sharqdan shimoli g`arbga tomon Sirdaryo o`tganligi sababli bahor va kuz oylarida shamollar esib turadi. Bekobod shamoli qishda Farg`ona vodiysida bosim yuqori, g`arb tomonida bosim past bo`lganda “Xo`jand” darvozasi orqali Mirzacho`lga esadi, tezligi sekundiga 20 – 25 metr, ko`pi bilan 30 – 40 metrga yetadi. Shu sababli dehqonchilik ishlarini amalga oshirishda noqulayliklar tug`dirib, xo`jalikka zarar yetkazmoqda. Ushbu noxush holatlarning oldini olish uchun esa ihota daraxtlari ekilmoqda.

Bekobod tumani pastlikda va Sirdaryo sohilida joylashganligi uchun yerosti suvlarini yer yuzasiga yaqin. Sirdaryo sohilida qoldiq ko`llar (Qolgansir, Katta Qolgansir, Yangiko`l, Haybatko`l, Qozon, Sho`rko`l) bor. Tuman hududidan Dalvarzin (o`ng va chap tarmoqlari bilan), Jivali, O`rtoqli, Do`slik kanallari va Xasayoz arig`i oqib o`tadi. Tuprog`i o`tloqi va o`tloqi – botqoq, och tusli bo`z tuproqlardan iborat. Hududda botqoq, sho`r bosgan va eroziyaga uchragan yerlar ham uchraydi. Bekobod tumanida miya, yantoq, qamish, qo`g`a, yulg`un, qiyog kabi o`simliklar o`sadi. Hayvonlardan chiyabo`ri, to`qay mushugi, bo`rsiq, qo`shoyoq, ko`rsichqon, kaltakesak va ilonlar, qushlardan o`rdak, loyxo`rak, qirg`ovul, so`fito`rg`ay, chumchuq va boshqalar yashaydi.

Tuman hududida Farhod GES, Dalvarzin paxta tozalash zavodi, kanop tayyorlash punkti joylashgan. Farhod GES Sirdaryoning o`rta oqimida, Farhod gidrouzelida joylashgan gidroelektrstansiya hisoblanadi. 1948-yil 1- gidroagregati ishga tushirilgan. Ushbu inshoot Sirdaryo viloyati shahar va tumanlari, “Bekobod sement zavodi”, “Bekobod metallurgiya kombinati”ni elektrenergiya bilan ta`minlaydi.

Bekobod tumanida paxtachilik yetakchi o`rinda turadi. Aholi bog`dorchilik, pillachilik, polizchilik, sabzavotchilik bilan shug`ullaniladi. Tuman hududida sug`oriladigan yerlar maydoni 37,9 ming gettarga teng. Adirlarda bahorgi va kuzgi arpa, bug`doy, sug`oriladigan yerkarda sholi ekiladi. Tumanda chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Tuman fermer va shaxsiy xo`jaliklarida ko`plab qoramol, qo`y va echkilar, parrandalar boqiladi.



CANADA



CANADA

2023-yil 1-yanvar holatiga ko`ra faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining jami soni 246 tani tashkil etadi. Shulardan, 1 tasi yirik, 245 tasi kichik va shu bilan bir qatorda 1 tasi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sirasiga kiradi. Tumanning janubida Farg`ona vodiysiga boradigan temiryo`l va Toshkent – Bo`ka – Bekobod avtomobil yo`llari o`tgani. Tuman bo`yicha 2 ta shifoxona muassasasi mavjud. Ambulotoriya – poliklinikalar muassasalari soni esa 14 tani tashkil etadi. Ulardan 7 tasi qishloq vrachlik punkitlari hisoblanadi. Shu bilan birga 30 ta mакtabgacha ta`lim muassasalari, 62 ta umumta`lim maktablari faoliyatini olib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bekobod tumanining 2020-2022-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish to`g`risidagi axborotnoma, 2023-yil
2. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000 – yil. 683-bet.
3. Internet saytlari.